

SURXON tongi

2026-yil
28-yanvar
(chorshanba)
4-son
(17 988)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan



surxontongi.uz



t.me/surxontongi



TEZKOR, TEJAMKOR, EKOLOGIK TOZA...

Viloyat hokimi Ulug'bek Qosimovning Termiz shahridagi ijtimoiy soha obyektlarini o'rganishi ana shu ezgu maqsadlar yo'lidagi ishlarining amaliy ifodasi bo'ldi. O'rganish davomida Termiz shahrida barpo etilayotgan O'zbekiston-Yaponiya texnologiyalar universiteti, xalqaro maktab va texnikum qurilishlari ko'zdan kechirildi. Ushbu ta'lim muassasalari yosh avlodga zamonaviy bilim berish,

raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va yoshlarning kelajagini mustahkamlashga xizmat qilishiga shubha yo'q. Qurilish jarayonlari bo'yicha sifat va muddat masalalariga alohida e'tibor qaralilib, mas'ullarga aniq ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, Muzrabot tumanining "Yangidiyor" mahallasini Yangi O'zbekiston qiyofasidagi mahallaga aylantirish bo'yicha ishlab chiqilgan loyihalar taqdim etildi. Ushbu tashabbus mahallalarda yashash

sharoitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, aholining ijtimoiy faolligini oshirish orqali inson qadriini yuksaltirishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Viloyat rahbari prokuratura organlari xodimlari uchun ajratilgan xizmat uylaridagi sharoitlarni ham o'rganib, infratuzilma holati bilan tanishdi. Xodimlar va aholi bilan bo'lib o'tgan suhbatlar jarayonida uy-joy sharoitlarini yanada yaxshilash, hududni obodonlashtirish va ta'mirlash bo'yicha muhim vazifalar



ISLOHOTLAR SAMARASI



Viloyatda olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar, avvalo, inson qadriini ulug'lash, uning ta'lim olishi, munosib yashashi va samarali mehnat qilishi uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan.

belgilandi. Bu esa xizmat burchini ado etayotgan mutaxassislarining ijtimoiy himoyasi va mehnat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tashrifning yana bir muhim jihati shundaki, zamonaviy maxsus texnikalarning foydalanishga topshirilishi bo'ldi. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Surxondaryo filialiga 30 ta elektr yuk mashinasi, viloyat Avtomobil yo'llari boshqarmasiga esa o'nga yaqin maxsus texnika tantanali ravishda topshirildi. Ushbu texnikalar soha xodimlarining

ishini yengillashtirish, tezkorlik va samaradorlikni oshirish, energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiladi. Ushbu ishlar va amalga oshirilayotgan loyihalar "Inson qadri uchun" tamoyili asosida olib borilayotgan islohotlarning hayotiy ifodasi bo'lib, viloyatimizda barqaror rivojlanish, qulay yashash muhiti va samarali mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

VIJDON AMRI VA MAS'ULIYAT HISSI BIRLASHSA

Bugun rivojlanish yo'lidan jadal odimlayotgan mamlakatimizning yutug'ida shu yurtda yashayotgan har bir vatandoshning beminnat hissasi bor. Binobarin, bunga javoban, bizga ishlash va yashash uchun keng imkoniyat yaratib berayotgan davlat oldidagi burchimizni Vatan tinchligini asrash, yurt iqtisodiyotiga munosib hissa qo'shish bilan oqlashimiz talab etiladi.

Ya'ni, oddiy fuqarodan tortib yuqori mansabda ishlayotgan har bir kishi qalbida vijdon amri va mas'uliyat hissi birlashgan yurtdagina yuksalish, rivojlanish bo'ladi. Qachonki, yuqori turuvchi organ vakillari o'z faoliyatlarini yuzasidan jamoatchilik va OAV oldida hisob berib bormas ekan, tizimda olib borilayotgan amaliy ishlar ommabaxar qolaveradi. Ayniqsa, bu huquqni muhofaza qilish idoralari uchun juda muhim sanaladi. So'nggi yillarda mas'ul idoralar tomonidan xalq va jamoatchilik oldidagi burch va vazifalardan kelib chiqib, matbuot anjumanlari, sayyor qabullar o'tkazib borilayotganligi o'z samarasini bermoqda. Kuni kecha viloyat Adliya boshqarmasida viloyat Prokuraturasi va Adliya boshqarmasi hamkorligida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq faollari, jurnalist va blogerlar uchun matbuot anjumanini tashkil etildi. Matbuot anjumanida, dastlab, tizimda 2025-yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan viloyat Adliya boshqarmasi boshlig'i A. Isoqovning hisoboti tinglandi. Shuningdek, viloyat prokurorining jamoatchilik bilan aloqalar va huquqiy axborot bo'yicha katta yordamchisi A. Bobomuradov tomonidan o'tgan yilda amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalar haqida axborot berildi. Viloyat Prokuraturasi va Adliya boshqarmasi tomonidan berilgan ma'lumotlarga tayanib shuni ta'kidlash kerakki, o'tgan bir yilda har ikki tizimda, jamiyatda shaffoflikni ta'minlash, korruptsiyaga qarshi kurashish borasida ko'plab ijobiy natijalarga erishilgan. — 2025-yilda tizimda bir qator e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi, — dedi viloyat Adliya boshqarmasi boshlig'i A. Isoqov o'z hisobotida. — Xususan, jismoniy va

yuridik shaxslardan kelib tushgan jami 6 096 ta murojaatning 5 378 tasi hal etilib, shundan 48 foizi yoki 2 593 tasi qanoatlanirildi, 2 785 tasiga huquqiy tushuntirish berildi, 720 tasi ko'rib chiqish uchun vakolatli organlarga yuborildi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining norma ijodkorligi faoliyatini yuzasidan o'rganish va monitoringlar o'tkazilib, natijasi bo'yicha jami 32 ta taqdimnoma kiritildi. Mazkur taqdimnomalar natijasida mahalliy davlat hokimiyati organlarining jami 19 ta normativ tuzatish qarorlari bekor qilindi. Qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda amaliyotda mavjud muammoli holatlarni bartaraf etish yuzasidan 182 ta taklif ishlab chiqildi. Boshqarma va uning tizimidagi adliya bo'limlari tomonidan 816 ta o'rganish va 1 169 ta monitoring o'tkazilib, o'rganishlar davomida 1 589 ta tashkilot faoliyatini qamrab olinib, monitoringlar natijasida 85 262 ta qonunbuzilish holatlari aniqlanganligi ahamiyatli. Shuningdek, qonunbuzilish holatlarini bartaraf qilish yuzasidan 1 421 ta taqdimnoma, 463 ta ma'muriy javobgarlikka tortish haqida takliflar hamda 2 806 ta ogohnoma kiritilganligi tadbirlarning ko'lamlidan darak beradi. Buning natijasida 327 nafar shaxs intizomiy (shundan 9 nafari egallab turgan vazifasidan ozod qilingan) va 460 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan. 25 milliard 206 million so'mdan ortiq pul mablag'lari qonuniy egalari qaytarilishiga erishilgan. O'tkazilgan matbuot anjumanida huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari, jurnalist va blogerlar, sohaga qiziquvchi faol fuqarolar ishtirok etib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi. **Xolmuhammad TOG'AYMURODOV**

Inson yashar ekan, umr bo'yi hayot manbasi bo'lgan suvga ehtiyoj sezadi. Shu bois bugungi rivojlangan dunyoda ichimlik suvi bilan aholini ta'minlash butun bir tizim sifatida faoliyat yuritmoqda. 4 unisning biri bo'lmish — ichimlik suvining qadri-qimmatini ta'riflashga til ojiz, uni hech nima bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

"Surxondaryo suvi ta'minoti" AJ da bo'lib o'tgan matbuot anjumanida ichimlik suvi taminotini

Yil davomida barcha manbalari hisobidan jami 8 ta ichimlik suvi inshooti, 484,2 kilometr ichimlik suvi tarmoqlari,

Suv tashib iste'mol qilgan 10 920 nafar iste'molchining ichimlik suvi tarmoqlari to'g'ridan-to'g'ri xonadonlariga kiritilib, 38 473 nafar iste'molchiga

istiqomat qiluvchi 484 500 nafar aholining ichimlik suvi ta'minoti sifat jihatdan yaxshilanganligi ta'kidlandi. — Korxonamiz tomonidan yangi

514,6 ming kilovatt/soat elektr energiyasi tejalisiga erishildi, — deydi "Surxondaryo suvi ta'minoti" AJ direktori O'.Abdulqosimov. — Buning natijasida,

"To'palang" suvi ombori suvidan foydalanish hisobiga viloyatimizda ichimlik suvi ta'minotini mega loyihasi doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilib, ayni paytda qurilish ishlari davom ettirilmoqda.

2026-yil 1-yanvar holatiga loyiha bo'yicha bosh pudratchi — "To'palang HPD Platinum" MCHJ tomonidan 2 trillion so'mdan ortiq qurilish-montaj ishlari bajarilgan. Umumiy hisobda 245,9 kilometr ichki va magistral ichimlik suvi tarmoqlari tortilib, viloyat bo'yicha 10 ta tuman va Termiz shahri qamrab olinishiga erishildi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida jami 144 ta mahallada istiqomat qiluvchi 562,9 ming nafar aholining ichimlik suvi ta'minoti sezilarli darajada yaxshilandi. Ichimlik suvining sifati oshirilib, uning qattiqlik darajasi ikki baravargacha kamaytirildi. Bu o'z navbatida, aholi

salomatligini tiklashda qo'l kelmoqda. Joriy yilda jamiyat tomonidan Sherobod tumanigacha bo'lgan masofaga yangi magistral tarmoqlar tortish, bir qator tumanlar hamda Termiz shahrida qo'shimcha suv saqlash va taqsimlash inshootlarini barpo etish rejalashtirilgan. Sohada olib borilayotgan izchil islohotlar samarasi o'laroq, aholini toza ichimlik va oqava suvi bilan ta'minlashni yangi bosqichga olib chiqish borasida ko'plab loyihalar amalga oshirilmogda. Boshlangan yilda ham bu yo'nalishdagi ishlar izchil davom ettirilib, har bir xonadonga sifatli, uzluksiz ekologik toza ichimlik suvi yetkazib berish ustuvor vazifa etib belgilangan.



SURXONDARYO SUV TA'MINOTI AKSIYADORLIK JAMIYATI

yaxshilash bo'yicha 2025-yil davomida bajarilgan ishlar va 2026-yilgi istiqboldagi rejalar xususida so'z bordi. O'tgan yili viloyatda aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 65,3 foizdan 67,5 foizga yetkazildi. Bu — qisqa vaqt ichida amalga oshirilgan keng ko'lamli qurilish, rekonstruksiya va modernizatsiya ishlarining amaliy natijasidir.

bitta oqava suvi inshooti hamda 12,3 kilometr oqava suvi tarmoqlari qurilib foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, mavjud infratuzilmani ishonchli holatda saqlash maqsadida 56,3 kilometr tarmoq va 194 ta nasos joriy hamda mukammal ta'mirdan chiqarilgan bo'lsa, jamiyat tasarrufidagi inshootlarga 83 ta zamonaviy, energiya tejamkor nasos o'rnatilgan.

SUV - HAYOT, - NAJOT



zamonaviy suvi hisoblash uskunalari o'rnatilgan. Natijada 157 ta mahalladagi 65 396 nafar aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvidan bahramand bo'lgan. Shuningdek, 203 ta mahallada

innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda Termiz shahridagi "Shimoliy" suvi ishlab chiqarish inshootida 470 kilovatt quvvatli quyosh panellari ishlab chiqarigan quvvat evaziga yillik

elektr energiyasi sarfi kamayib, jamiyat mablag'i tejaldi. Avariya holatlariga tezkor javob berish maqsadida 17 ta avariya-tiklash guruhi shakllantirilib, ularga 81 nafar mutaxassis va 34 ta maxsus texnika birlashtirildi. Shuningdek, 38 ta ichimlik suvi tashuvchi maxsus texnika olib va suvi ta'minoti cheklangan hududlarda aholiga xizmat ko'rsatmoqda. 2026-yilda barcha manbalari hisobidan 1 016,3 kilometr ichimlik suvi quvurlari hamda 30 ta suvi inshootini qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

"Surxon tongi"

45 KUN statistika muammo tug'dirmaydi

Aholini ro'yxatga olish nima uchun zarur, O'zbekiston nima sababdan bu islohotni amalga oshirish uchun shuncha tayyorgarlik ko'rdi, 45 kunlik safarbarlik asosida ro'yxat shakllantirilishi nima uchun kerak?

2026

Esquilarning gapiga tayanmay, keksalarning nimanidir bilishini rad etib-da biror narsaga erishib bo'lmaydi. Bugun tilimizda muqim o'rnatilgan aholini ro'yxatga olish zaruratini uying farishtalari shunday izohlayotir: — O'zbekiston mustaqilligining dastlabki yillarida non, moy kabi kundalik oziq-ovqatlar uydagi jon boshiga qarab berila boshladi, — deydi termizlik N.Usmonova. — O'sha paytlari har bir oilada "yangi chaqaloqlar dunyoga keldi", bitta daftarchaga oila a'zolarimiz safiga qo'shimcha ism-familiya kiritib qo'yganmiz. Yoki Termizda o'qiyotgan va kvartiraga uyimizda turgan bolalar, qizlar ham ro'yxatimizda edi. Shuning evaziga bu ro'yxatga olish juda zarur...

O'sha daftardagi ismlarning bazada mavjud emasligini navqiron aqlim sezib turgan esa-da, sababini topganday bosh iring'ayman. Darhaqiqat, shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamas.

MAQSAD BOR, NAFSAAT BOR...

Tan olish kerak, aholini ro'yxatga olishdan maqsad bor. Shunchaki aholi sonini bilish, uning uyini "google

map"dan belgilash asosiy maqsad emas... Ehtimol, eng avvaliga qaytarmiz...

Miloddan avvalgi 3000-yillarda Qadimgi Misrdan fir'avnlar soliqchilarni belgilash va harbiy kuchni hisoblash uchun aholining sonini qayd etgan. Demak, O'zbekiston ham soliq to'lovchilarni aniqlash uchun shunday yo'l tutdimi?

"Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonida berilgan barcha ma'lumotlar qonunga asosan maxfiy saqlanadi hamda soliqqa tortish yoki tekshiruv o'tkazish uchun ishlatilmaydi. Savolnomada ko'rsatilgan javoblar boshqa idoralarga taqdim etilmaydi. Ro'yxatga olishda to'plangan ma'lumotlar faqat umumiy statistik tahlil uchun xizmat qiladi. Ya'ni, qancha yer bor, qancha chorva mavjud — bular alohida shaxs yoki xonadon kesimida emas, umumlashgan holda e'lon qilinadi. Shu bois, savolnomani xavotirsiz va to'liq to'ldirishingiz shaffofroq, ko'zbo'yamachilikdan xoli ko'rsatish imkonini berar. — O'tgan yili Termiz tumani hokimining sayyor qabulida hududimizni suv bilan ta'minlash masalasida murojaat qilgan edim, — deydi uchqizillik D.Ravshanova. — Lekin hudud allaqachon

haqiqatga anchagina yaqin. Chunki...

— Men onlayn ro'yxatdan o'tish davrida aynan hozirgi paytda istiqomat qilayotgan manzilimni belgiladim, — deydi aslida Qumqo'rg'on tumanida ro'yxatda turuvchi G.Oqboyeva. — Mana 15 yildirki, Termiz shahrida yashayman, bolalarim ham, turmush o'rtog'im ham boshqa manzilda doimiy ro'yxatda turadi. Mazkur so'rovnomada yashash manzilimizni to'g'ri ko'rsatdik.

Onlayn ro'yxatdan o'tgach, tekshiruvlar uyuma-uy o'tkazilishi vaziyatini yanada oydinlashtiradi. *Census.stat.uz* sayti orqali ro'yxatdan o'tarkanmiz, nima uchun shunday nom berilganini ham bilib qo'ying?.. Qadimgi Rimda har 5 yilda bir marta o'tkazilgan ro'yxat soliq va harbiy xizmatni belgilashda asosiy vosita bo'lgan va "census" atamasi ham Rimda kelib chiqqan. Bejiz bu so'z tanlanmagandir, aholi qatlamini, hududning infratuzilmasini shaffofroq, ko'zbo'yamachilikdan xoli ko'rsatish imkonini berar.

— O'tgan yili Termiz tumani hokimining sayyor qabulida hududimizni suv bilan ta'minlash masalasida murojaat qilgan edim, — deydi uchqizillik D.Ravshanova. — Lekin hudud allaqachon

ichimlik suvi bilan ta'minlanilgan hamda mahallada tomorqani sug'orish uchun betonlashtirilgan suv yo'laklari qurilib tugatilganligi haqida axborot berilganligini bildim. Shundan so'ng, hokim o'rganib, suv masalasini hal qilib berdi.

Ehtimol, shu singari ijtimoiy masalalar, aholi yashash sharoitini to'laqonli aniqlash maqsadida so'rovnomada: "uyning umumiy maydoni, qurilgan yili va tashqi devorlarda ishlatilgan materiallar", "muhandislik kommunikatsiyalari — suv, gaz, elektr, issiq suv, isitish va internetga ulanganlik holati", "sanitariya va gigiyena qulayliklari (hojatxona holati)" singari savollarga alohida ahamiyat qaratilgan.

JAHONGA BO'YLASHIB, KO'RAMIZ O'YLASHIB...

BMT tavsiyasiga ko'ra, har bir davlat har 10 yilda bir marta aholini ro'yxatdan o'tkazishi kerak. Bu global demografik ma'lumotlarni taqqoslash imkonini beradi. O'zbekistonda birinchi ro'yxat 1897-yilda Turkiston general-gubernatorligi hududida Rossiya imperiyasi tomonidan o'tkazilgan. Bu O'zbekiston hududidagi birinchi rasmiy

aholini ro'yxatga olish hisoblanadi. Unda aholining soni, milliy tarkibi, yoshi, jinsi va ijtimoiy holati haqida dastlabki demografik ma'lumotlar yig'ilgan. Qo'rqmang, sizning ma'lumotlaringiz sir saqlanadi, statistika siz uchun muammo tug'dirmaydi.

Chunki so'nggi bor 1989-yilda o'tkazilgan so'rovnomalarda ishtirok etganlar ro'yxatga olishdan so'ng soliq oshganligini, aholini yoppasiga harbiy xizmatga jalb etilganligini eslay olmaydi. Vaholanki, o'sha yillari O'zbekiston hududida qariyb har 10 yilda aholi ro'yxatdan o'tkazilgan.

O'zbekistonda 2026-yilgi ro'yxat mustaqillik davrida birinchi keng qamrovli tadbir sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish joriy yil 15-yanvardan 28-fevralgacha o'tkaziladi. Bu tadbir Prezidentimizning 2025-yil 19-sentyabr-dagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi farmoniga asosan amalga oshirilmoqda va mamlakatning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda qishloq xo'jaligi holatini to'liq baholash uchun



muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, yangi davrda ro'yxat ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma rejalashtirishda asosiy manba bo'lib qoldi. Birinchidan, mazkur tashabbus davlat siyosati uchun asos: Ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy va infratuzilma loyihalarini rejalashtirishda foydalaniladi. Ikkinchidan, hududiy rivojlanish imkonini beradi — har bir viloyat va tuman bo'yicha aniq demografik ko'rsatkichlar shakllanadi.

VAZIYAT XO'JAKO'RSINGA ISHLAMAYDI

Aholini ro'yxatga olish — O'zbekistonning kelajakdagi rivojlanish strategiyasini belgilashda hal qiluvchi bosqich. Bu jarayon orqali davlat aholining real holatini bilib, resurslarni adolatti taqsimlash imkoniga ega bo'ladi. Shu bois, fuqarolarning faol ishtiroki va to'liq ma'lumot berishi juda muhim.

— Termiz tumanidagi "Qo'ng'iro't" mahallasi hududida ikkita maktab bor, lekin

eski maktabda hanuz yangi o'quv binosiga ehtiyoj saqlanib qolmoqda, — deydi Termiz tumanidagi 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi A.Tursunova. — Uch yildan buyon "bu yil aniq yangi bino quriladi", degan gapni eshitamiz. Yangi ro'yxat shakllangach, vaziyat oydinlashadi. Hududdagi bola soni hamda maktabning sig'imi solishtiriladi va yangi binoga ehtiyoj borligi quyi bo'g'indan yuqoriroqqa bildiriladi.

Darhaqiqat, bu jarayon nafaqat demografik ma'lumotlarni yig'ish, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demografik ma'lumotlarning ahamiyati esa kelgusida ta'lim va bandlik siyosatini rejalashtirish uchun zarur. Masalan, yoshlar ulushi yuqori bo'lsa, oliy ta'lim va ish o'rnlari masalasi dolzarb bo'ladi. Qolaversa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar tizimini muvofiqlashtirishda muhim. Shunday ekan, ertangi istiqbolli kelajakni yaratishda faollik zarur.

Xurshid KARSHIYEV



Ko'plab nizolar va huquqbuzarliklar aynan huquqiy bilim yetishmasligi sababli kelib chiqadi.

HUQUQINI BILMASA...

Fuqarolar o'z huquqlarini bilmagani uchun aldovga uchramoqda, shartnomalarni o'qimasdan imzolamoqda yoki qonuniy imkoniyatlardan foydalanmay qolmoqda. Advokatlik faoliyatida eng ko'p uchraydigan masalalardan biri — fuqarolarning huquqiy oqibatlarini oldindan baholamasdan harakat qilishi bilan bog'liqdir. Masalan, og'zaki kelishuvlarga ishonish, hujjatlarni rasmiylashtirmaslik yoki sudga murojaat qilishdan cho'chish fuqarolar manfaatlariga jiddiy zarar yetkazadi. Shu bois har bir fuqaro shartnomalar va bitimlarni diqqat bilan o'rganishi, o'z huquqlarining

buzilishiga befarq bo'lmasligi shart. Zarurat tug'ilganda, malakali huquqiy yordamga murojaat qilish va qonunlarga hurmat bilan yondashishi lozim. Huquqiy madaniyatning yuksalishi jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlaydi, fuqarolar o'rtasida o'zaro ishonchni mustahkamlaydi va ijtimoiy adolat qaror topishiga zamin yaratadi. Huquqiy savodxonlikni oshirish — bu nafaqat davlat idoralari, balki butun jamiyat oldidagi umumiy vazifadir. Huquqiy bilimga ega fuqaro o'z manfaatlarini himoya qila oladi va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shadi.

Firdavs OMONOV, advokat

Bugungi globallashtirgan dunyoda xorijiy tillarni o'rganish shaxsiy va kasbiy rivojlanishning ajralmas qismiga aylangan. An'anaviy o'qitish usullari o'rnini interaktiv va texnologiyaga asoslangan yondashuvlar egallamoqda.



INTERFAOL YONDASHUV SAMARALIROQ

Zamonaviy o'quvchilarning ehtiyojlari — xorijiy til o'rganish jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitishni taqozo etadi. Xorijiy tilni o'rganishda onlayn platformalar, virtual va kengaytirilgan realistik yordamida immersiv ta'lim tajribasi yaratish, sun'iy intellekt asosida personalizatsiya qilingan mashg'ulotlar va suhbat simulyatsiyalari, mobil ilovalar orqali har doim va har joyda til o'rganish imkoniyati, gamifikatsiya yordamida o'yin shaklidagi mashg'ulotlar orqali til ko'nikmalarini mustahkamlash kabi texnologik imkoniyatlar keng qo'llanilmoqda. Innovatsion texnologiyalar bilan uyg'un holda kommunikativ yondashuv, muammoga asoslangan ta'lim, an'anaviy va onlayn ta'lim metodlarining uyg'unlashuvi, amaliy topshiriqlar orqali til ko'nikmalarini mustahkamlash kabi metodlar keng qo'llaniladi. Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning integratsiyasi ta'lim samaradorligini sezilarli oshiradi. Shaxsiylashtirilgan, motivatsiyaga asoslangan va texnologik yordamchi vositalar bilan boyitilgan ta'lim modeli zamonaviy talab va ehtiyojlarga to'liq javob beradi. Kelgusida xorijiy til o'qitishda sun'iy intellekt va immersiv texnologiyalarning yanada kengaytirilgan imkoniyatlaridan foydalanish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Bekzod NORQULOV, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Badaxshon — Afg'onistonning shimolida joylashgan mamlakat nomidir. Bu o'lka XIX asr oxirlariga qadar, ya'ni afg'onlar tomonidan bosib olinmaguncha, mustaqil davlat bo'lgan. Badaxshon forsizabon xalqlarning asl vatani hisoblanib, bu hududda aynan shu xalq yashab kelgan. Shuni aytish joizki, Angliya va Rossiya podshohligi hukumatining sa'y-harakati bilan Panj va Amudaryo Buxoro bilan Afg'oniston o'rtasidagi chegara sifatida tan olingan bo'lsa-da, daryoning har ikki tomonida yashovchi aholi o'zaro qarindoshlik, madaniy, iqtisodiy va boshqa aloqalarni saqlab kelgan. Vaxondan boshlab

markaziga keltirilgan qimmatbaho toshlar qatorida "Kasaka Kanautaka", ya'ni ko'k la'l tilga olinadi. Bu tosh o'sha davrda Baqtriya satrapligiga kirgan Badaxshonda qazib olingan. Arxeologlar Mesopotamiyada joylashgan malika Shubot maqbarasini (miloddan avvalgi III ming yillik) qazish jarayonida oltin kosalar tagiga o'rnatilgan munchoqlarni topishgan bo'lib, ularning tayyorlanishida Badaxshon la'lidan foydalanilgan. Shimoliy Hindistondagi Mohenjo-daro xarobalaridan ham lazuritdan yasalgan buyumlar topilib, ularning yoshi besh ming yilga tengligi ta'kidlanadi.

keladi, so'ng shimoli-sharqqa qarab 500 li yurib Datastedi (Vaxon)ga keladi. Bu hudud Panj daryosi vodiysida, Fojju (Mastuj) daryosi yaqinida joylashgan bo'lib, o'sha paytda Vaxon markazi Xuntodo (Kandud) deb atalgan. Vaxonning shimolida Shishini (Shug'non) viloyati joylashgan bo'lib, uning aholisi alifbosi Tuxolo (Tohariston) aholisi alifbosiga o'xshash, ammo tillari farq qilgan. Yana bir xitoylik sayyoh Xay-Chao VIII asrning 20-yillari oxirida Hindistondan Xitoyga qaytayotib Badaxshon va Pomir haqida ma'lumot bergan. Uning yozishicha, Tohariston arablar tomonidan

Badaxshon Eftalitlar davlatining bir qismi bo'lib, ularning asosiy markazi bo'lganini yozadi. 555-563-yillarda eftalitlar turklar tomonidan mag'lub etilib, O'rta Osiyo egallab olingan. VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab arablar Xuroson va Movarounnahrqa yurishlar boshlagan. VI-VII asrlarda Panj va Amudaryoning har ikki tomonidagi yerlar — Vaxondan Keshgacha (Shahrisabz) bo'lgan hududlar yagona davlatni tashkil etib, u Tohariston yoki Buxoro deb atalgan. Syuan Tszyan ma'lumotlariga ko'ra, VII asr o'rtalarida Tohariston



BILASIZMI?

Markaziy Osiyo xaritasida bir qarashda chekka tog'lar orasida qolib ketgandek tuyuladigan Badaxshon aslida butun mintaqa tarixida muhim o'rin tutgan. Bu o'lka nafaqat tabiiy boyliklari, balki madaniy va siyosiy voqealari bilan ham asrlar davomida e'tibor markazida bo'lib kelgan.

TARIXI SHARAF-SHON — BADAQSHON

Shug'non, Darvoz va Xatlongacha bo'lgan hudud aholisi hech qachon o'zlarini bir-biridan alohida ko'rmagan. Vaxon, Shug'non va Darvoz 1895-yilgacha Badaxshon tasarrufida bo'lgan. Badaxshon miloddan avvalgi I ming yillikdagi o'zining la'li (lazurit) koni bilan mashhur bo'lgan. Mashhur sharqshunos olim I.M.Dyakonov o'z asarida ossuriyaliklar va bobilliklar Badaxshon la'li koni haqida xabardor bo'lib, uni qo'lga kiritishga harakat qilganini, ammo mahalliy aholi ularning hujumini mardonavor qaytarganini qayd etadi. Doro I (miloddan avvalgi 521-485-yy.) davriga oid mixxat yozuvlarida Ahamoniyalar davlatining

Badaxshon nomi ilk bor Xitoy manbalarida uchraydi. 590-yilda hind rohibi Dxarma Gupta Kapisonidan (hozirgi Afg'oniston) Badaxshon orqali Xitoyga yo'l olgan. Xitoy manbalarida bu joy "Bodochjana" shaklida keltirilgan bo'lib, olimlar buni Badaxshon so'zining xitoycha talaffuzi deb hisoblaydilar. Xitoylik sayyoh, olim va buddaviy rohib Syuan Tszyan VII asrning birinchi yarmida Xitoydan O'rta Osiyo orqali Hindistonga borib, keyin yana Xitoyga qaytgan. U o'z xotiralarda Badaxshon va Pomir haqida ma'lumotlar qoldirgan. U Simitalodan Bodochuanna mamlakatiga yetib kelganini yozadi, u yerda 3-4 ta budda ibodatxonasi mavjud bo'lib, podshohi ham buddaparast bo'lgan. 300 li yo'l bosgach, Siluannaga yetib

bosib olingan, podshohi esa Putishon (Badaxshon)ga qochib kelib panoh topgan. Vaxon podshohi ham shu sababli arablar hokimiyatini tan olib, har yili ma'lum miqdorda kumushni xiroj sifatida to'lab turgan. Xay-Chaoning ma'lumotiga ko'ra, Vaxonning shimolida Shini (Shug'non) joylashgan bo'lib, u 9 ta viloyatdan iborat edi. Ulardan biri Vaxonga bo'ysungan, qolganlari mustaqil bo'lib, tez-tez "Katta Bomin dashti" (Pomir)ga savdogarlarni talash uchun 200-300 kishiilik otryadlar yuborgan. Yana bir xitoylik sayyoh U-Gun VIII asrning 80-yillarida Xuttalon, Shug'non va Qashg'ar orqali Xitoyga qaytib, Vaxon markazini Saygashyon (Shukoshim) deb atagan. U VI asrning birinchi yarmida

27 viloyatdan iborat bo'lib, u o'tayotgan paytda barcha shaharlari obod bo'lgan. Jumladan, Chag'oniyon, Termiz, Shuman, Aharum, Qovodiyon, Vashgird, Kumed, Xuttalon (Vaxshu), Shug'non va Vaxonning bir qismi daryoning bir tomonida, shuningdek, Badaxshon, Vaxonning bir qismi, Munjon, Kurron va boshqa hududlar daryoning narigi tomonida joylashgan. VI-VII asrlarda Panj va Amudaryo bu hududlarda yashovchi qadimiy aholi uchun na to'siq, na chegara bo'lgan.

Baxtiyor JABBOROV, Boysun tumanidagi 5-umumta'lim maktabining tarix fani o'qituvchisi



“O‘ZTRANSOZ” AKSIYADORLIK JAMIYATI MUBORAK MAGISTRAL GAZ QUVURLARI BOSHQARMASI MAGISTRAL GAZ QUVURLARINING MUHOFAZA HUDUDIDA XAVFSIZLIK CHORALARI TO‘G‘RISIDA OGOHLANTIRADI

Mamlakatimizning barcha hududlarida bo‘lgani kabi Surxondaryo viloyati bo‘ylab shaharlar, aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta‘minlovchi yuqori bosimli magistral gaz quvurlari o‘tkazilganligini eslatib o‘tadi. Eksploatatsiyaning normal sharoitini ta‘minlash va quvurlarning buzilishiga (ularning har qanday o‘tkazilishidan qat‘i nazar) yo‘l qo‘ymaslik uchun “Magistral gaz quvurlari himoya Qoidasi”ga va O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 69-moddasiga asosan, muhofaza hududi o‘rnatilgan:

— Magistral gaz quvurlari bo‘ylab xavfsizlik yer uchastkasi ko‘rinishida, quvur o‘qining har ikki tomoniga 50 metrcha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo‘ladi;

— Qishloq xo‘jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni magistral gaz quvurlarining o‘qidan har ikki tomoniga 25 metr masofada o‘tadigan, shartli chiziqlar bilan chegaralanadi;

— gazdan kondensatni ajratish va saqlash uchun sig‘imlar atrofida, neft, kondensat va siqilgan uglevodorodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida — ko‘rsatilgan obyektlar maydoni chegarasida har tomoniga 50 metr dan tutashgan chiziq bilan chegaralangan uchastka ko‘rinishida;

— ko‘p tarmoqli magistral gaz quvurlari bo‘ylab, chetki quvur o‘qining har tomonidan 50 metr masofada o‘tgan, shartli chiziqlar bilan chegaralangan — yer uchastkasi ko‘rinishida;

— boshlang‘ich va oraliqdagi o‘tkazish va quyish nasos stansiyalari atrofida, rezervur parklar, kompressor va gaz

taqsimlash shoxobchalari, sarf qilingan gazni o‘lchash moslamalari, obyektleri chegaralarida har tomonga 125 metr masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan yer uchastkasi ko‘rinishida.

Magistral gaz quvurlarining muhofaza mintaqasiga kiruvchi yer uchastkalari yerdan foydalanuvchilardan olib qo‘yilmaydi va ular “Magistral gaz quvurlari muhofaza qilish” qoidalariga qat‘iy rioya qilgan holda qishloq xo‘jaligi yoki boshqa turdagi ishlar olib borish uchun foydalaniladi.

“Magistral gaz” quvurlarning muhofaza mintaqasida qishloq xo‘jaligi dala ishlari, ekish va yig‘ish kompaniyasi boshlanishi oldidan, ushbu quvurlarga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalariga (MGQB) oldindan ma‘lum qilgan holda olib boriladi.

Magistral gaz quvurlarining muhofaza mintaqasida quvurlarni

me‘yoriy foydalanishga xalaqit beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdagi ishlar **TAQIQLANADI**, jumladan:

— har qanday qurilish ishlarini olib borish va inshootlarni tiklash;

— har xil turdagi daraxt va buta o‘simliklarini ekish, yem-xashak, ozuqa, o‘g‘it va materiallarni to‘plash, pichan g‘amlash, ot bog‘laydigan qoziqlarni joylashtirish, chorvani himoya stansiyasi, tarmoq va nazorat qiluvchi quduqlar va boshqa tarmoq qurilmalarni ochish, zulf va jo‘mraklarni ochish, aloqa vositalari, quvur energo ta‘minoti va telemexanikasini yoqish va o‘chirish;

— turli xil axlat to‘dalarini paydo qilish, ishqorlar, tuzlar va kislotla eritmalarini to‘kish;

— quvurlarni buzilishlardan hamda yon atrofini va yaqin joylashgan hududni, transportirovka qilinadigan

(gruntni) rejalashtirish;

— yer melioratsiya ishlarini amalga oshirish, sug‘orish va quritish tarmoqlarini qurish.

— NUK va nazorat o‘lchov punktlari, signal beruvchi va ogohlantiruvchi belgilarni buzish, joylarni o‘zgartirish;

— kabel aloqasi xizmat ko‘rsatmaydigan tovush kuchaytiruvchi punktlarni qopqoqlarini, lyuklarni, katod himoya stansiyasi, tarmoq va nazorat qiluvchi quduqlar va boshqa tarmoq qurilmalarni ochish, zulf va jo‘mraklarni ochish, aloqa vositalari, quvur energo ta‘minoti va telemexanikasini yoqish va o‘chirish;

— turli xil axlat to‘dalarini paydo qilish, ishqorlar, tuzlar va kislotla eritmalarini to‘kish;

— quvurlarni buzilishlardan hamda yon atrofini va yaqin joylashgan hududni, transportirovka qilinadigan

mahsulotni avariya natijasida to‘kilishdan saqlovchi, yer ostki va suvni o‘tkazuvchi inshootlarni, qirg‘oqlarni mustahkam tutuvchi qurilmalarni buzish;

— olov yoqish yoki shunga o‘xshash ochiq, yopiq olov manbalarni uyushtirish.

Magistral gaz quvurlari yotqizilgan hududda mavzalar, aholi punktlari, sanoat va qishloq xo‘jalik korxonalarini, imoratlar (turarjoy va noturarjoy binolar) qurilishi O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi tasdiqlagan “SHNQ 2.05.06-97 Magistral quvurlar”ga ko‘ra magistral quvurlarning loyihalashtirilishining qurilish normalari va qoidalari bo‘yicha magistral gaz quvuridan bino va inshootga bo‘lgan eng kam masofaga qat‘iy rioya etgan holda amalga oshiriladi.

1-ilova. Alohida sanoat va qishloq xo‘jalik korxonalarini, binolar va inshootlarning aholi yashash nuqtalariga qadar I va II toifa gaz quvurlaridan eng kichik masofalar (m.da) (SHNQ 2.05.06-97 jadval-1)

OBYEKTLAR, BINOLAR, INSHOOTLAR	Gaz quvurining shartli diametri, mm								
	I					II			
	300 va kam	300 dan yuqori 600 gacha	600 dan yuqori 800 gacha	800 dan yuqori 1000 gacha	1000 dan yuqori 1200 gacha	1200 dan yuqori 1400 gacha	300 va kam	300 dan yuqori	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	
1. Shaharlar va boshqa aholi turarjoylari; — bog‘ uylariga ega bo‘lgan jamoaviy bog‘lar, dala hovlii maskanlar; — alohida sanoat va qishloq xo‘jalik korxonalarini; — issiqxonalar va xo‘jaliklar; — parrandachilik fabrikalari; — sut zavodlari; — foydali qazilmalar olish karyerlari; — jismoniy shaxslarning 20 dan ortiq avtomobillari uchun garajlar va ochiq mashina qo‘yish joylari; — alohida joylashgan kishilar ommaviy to‘planadigan joylar (maktablar, kasalxonalar, klublar, bolalar bog‘chalari va yasillari, volkallar va h.k.); — 3 qavatli va undan yuqori turarjoylar; — temir yo‘l stansiyalari; — aeroportlar; — dengiz va daryo bandargohlari; — gidroelektrostansiyalar; — I-IV toifadagi dengiz va daryo gidrotexnik inshootlari; — magistral quvurga tegishli bo‘lmagan tozalash inshootlari va suv quvurlari nasos stansiyalari, umumiy tarmoq temir yo‘llari va 20 metr dan yuqori oraliqqa ega I va II toifali avtomobil yo‘llari (oqim bo‘yicha ko‘priklardan pastroq neft va neft mahsulotlari quvurlarni yotqizishda); — 1000 m ³ dan yuqori saqlash hajmiga ega bo‘lgan tez alanga oladigan va yonuvchi suyuqliklar omborlari; — avtoyonilg‘i quyish stansiyalari; — telekommunikatsiyalar; — mactalar (minoralar) va inshootlari; — teleminoralar.									
2. Parallel holda quvurlar yotqiziladigan umumiy tarmoq — temir yo‘llari (orqali) va I-III toifa avtomobil yo‘llari; — 1-2 qavatli aholi turar joylar; — bog‘li uylar, dala hovliilar; — qabristonlar; — qishloq xo‘jalik fermerlar va chorvani uyushgan holda boqish uchun g‘ovlangan o‘tloqlar; — dala shiyponlari.	75	125	150	200	225	250	75	100	
3. Alohida turgan inson yashamaydigan va yordamchi binolar; — burg‘ilanayotgan va foydalanilayotgan neft, gaz va artizan quduqlari bo‘ylari; — 20 va undan kam avtomobillar uchun xususiy garajlar va ochiq turarjoylar; — kanalizatsiya inshootlari; — parallel holda quvur yotqizilayotgan sanoat korxonalarining temir yo‘llari; — avtomobil yo‘llari IV, V, III-p va IV-p toifadagi avtomobil yo‘llari.	30	50	100	150	175	200	30	50	
4. 20 metr dan ortiq oraliqqa ega bo‘lgan sanoat korxonalarini temir yo‘llari ko‘priklari, III, IV, III-p va IV-p toifadagi avtomobillar yo‘llari (oqim bo‘yicha ko‘priklardan pastda neft va neft mahsulotlarining quvurlarini yotqizishda).	75	125	150	200	225	250	75	125	
5. NKS, KS. Neft va gazni yalpi tayyorlash uskunalarini, GEOSS, sanoat jamlama va guruhli nuqtalari, sanoat gaz taqsimlash stansiyalari (SGTS), gaz tozalash va quritish uskunalarini hududlari.	75	125	150	200	225	250	75	125	
6. Avtomatlashtirilgan gaz taqsimlash stansiyalari (AGTS) GTS, boshqarish stansiyalari, shu jumladan, gaz bilan ta‘minlash uchun shkab turidagi boshqarish stansiyalari hududlari; a) shaharlar, turarjoylar, korxonalar, alohida binolar va inshootlar boshqa iste‘molchilar; b) gaz quvurlari obyektleri (gaz sarfini o‘lchash, termoelektrogeneratorlar va boshqalar nuqtalari).	50	75	100	125	150	175	50	75	
7. Termoelektrogeneratorli avtomatlashtirilgan elektrostantsiyalar, telemexanika va avtomatika aloqasi apparatlari.	Chetdagi yo‘nalishdan kamida 15								
8. Yonidan quvurlar yotqiziladigan magistral sug‘orish kanallari va kollektorlari, daryolar va suv havzalari sug‘orish tizimlari inshootlari va stansiyalari.	25	25	25	25	25	25	25	25	
9. Maxsus korxonalar, inshootlar. Maydonchalar, qo‘riqlanadigan hududlar, portlovchi va portlash xavfi bo‘lgan moddalar omborlari, qazib olinishida portlash ishlari qo‘laniladigan foydali qazilma konlari, suyuqlashtirilgan yonilg‘i gaz omborlari.	Belgilangan tartibda tasdiqlangan va davlat nazorati idoralari hamda tilga olingan obyektlarga ega vazirliklar va muassasalar bilan kelishilgan maxsus me‘yoriy hujjatlar talablariga muvofiq								
10. Parallel holda quvur yotqizilayotgan yuqori kuchlanishli elektr uzatish havo liniyalari; — trassaning toraygan sharoitlarida parallel holda quvur yotqizilayotgan yuqori kuchlanishli elektr uzatish havo liniyalari; — yuqori kuchlanishli elektr uzatish havo liniyalarining quvur bilan kesishgan joylaridagi ustunlari; — kuchlanishi 30 kv va undan yuqori bo‘lgan ochiq va yopiq transformator podstansiyalari hamda yopiq taqsimlovchi qurilmalar.	“Elektr uskunalar qurilmalari qoidalari” talablariga muvofiq								
11. Gaz quvuridan kondensatorni avariya chiqarib yuborish uchun yer ombori.	50	75	75	75	100	100	50	50	
12. Shaharlararo aloqa kabellari kuchlovchi elektrokabellar	10	10	10	10	10	10	10	10	
13. Quvurlarning xizmat ko‘rsatilmaydigan kam kanalli radiorelye aloqasi inshootlari mactalari (minoralar) va inshootlari, termoelektrogeneratorlar	15	15	15	15	15	15	15	15	
14. Yerosti termokameralaridagi kabel aloqalarining xizmat ko‘rsatilmaydigan kuchaytirish nuqtalari.	10	10	10	10	10	10	10	10	
15. Faqat quvurlarga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan trassa bo‘yidagi doimiy yo‘llar.	10 dan kam emas								
Magistral gaz quvurlari himoya mintaqasi qoidalari buzilishida aybdor bo‘lgan mansabdor shaxslar va fuqarolar, O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksning “Magistral quvurlar himoyasi qoidalari buzish” haqidagi 150-moddasiga asosan javobgarlikka tortiladi. MAGISTRAL GAZ QUVURLARIDAN FOYDALANUVCHI KORXONA VA TASHKILOTLAR MANZILLARI: Muborak MGKB, 180900, Qashqadaryo viloyati, Muborak sh. “Sanoatchilar” maydonchasi. Qumqo‘rg‘on TEQP Surxondaryo viloyati, Qumqo‘rg‘on tumani, “Jiydali” mahallasi.									
Denov tumanida faoliyat yuritayotgan “HABIB BOG‘ BARAKA” fermer xo‘jaligiga tegishli muhr va tamg‘a yo‘qolganligi MA‘LUM QILINADI.									

OGOHLIK

Xonadonlarda va qayta ta‘mirlanayotgan hamda yangi qurilayotgan turar joy binolarida yong‘in xavfsizligi qoidalari rioya qiling.

EHTIYOTSIZLIK QILMANG!

Yong‘in sodir bo‘lmaydigan uchun yosh bolalarni uyda yolg‘iz qoldirmang, ularga isitish moslamalaridan foydalanishlariga aslo yo‘l qo‘ymang. Gaz va elektr asboblarni ishlatish qoidalari qat‘iy rioya qiling, nstandart elektr moslamalaridan foydalanmang. Ochiq olovdan ehtiyotkorlik bilan foydalaning, ko‘p yong‘inlar olovdan ehtiyotsizlik natijasida sodir bo‘lishini unutmang.

Uydan chiqishdan oldin gaz va elektr uskunalarini (plita, dazmol, televizor va boshqalar) o‘chirilganligini tekshirib chiqing. Nostandart va qo‘lbola saqlagichlar (predoxranitel)dan hamda vaqtincha o‘tkazilgan elektr simlaridan foydalanmang. Ishlab turgan gaz va elektr asboblarni nazoratsiz qoldirmang! Yong‘in chiqqanda “101” va favqulodda hodisa sodir bo‘lganda “1050” qisqa raqamlariga qo‘ng‘iroq qilishni yodda tuting!

Sardor XOLTOJIYEV,
Termez tuman FVB favqulodda vaziyatlar profilaktikasi inspektori, katta leytenant

SARALASH BOSHLANDI

2026-yilgi chaqiruv mavsumi uchun saralash va tanlov boshlanganligi munosabati bilan 1999-2008-yillarda tug‘ilgan chaqiriluvchilarni tuman va shahar mudofaa ishlari bo‘limlariga murojaat etishlari so‘raladi.

Viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi

“Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalarini tahririyat jamoasi “O‘zbekiston pochatasi” AJ Surxondaryo filiali obuna bo‘limi boshlig‘i Barno Isayevaga singlisi **MAMLAKAT ISAYEVA**ning vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

SURXONDARYO VILOYATIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN BARCHA KORXONA VA TASHKILOTLAR RAHBARLARI DIQQATIGA!

2025-yil yakuni uchun taqdim etiladigan 1-NNT shakli (yillik) Tashkiliy-huquqiy shakli jamoat birlashmasi, jamoat fondi, muassasa, uyushma (ittifoq) bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlar, xalqaro va chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxona va filiallari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari organlari 2026-yilning 4-martidan kechiktirmay;

1-FX shakli (yillik) statistika hisobotini fermer xo‘jaliklari 2026-yilning 10-martidan kechiktirmay;

1-Korxonalar shakli (yillik) statistika hisobotini Tijorat tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslar (xodimlar soni yillik o‘rtacha 5 kishidan kam bo‘lgan va (yoki) yillik tushumi bazaviy hisoblash miqdorining 2 000 barobarigacha bo‘lgan mikrofirma va kichik korxonalaridan tashqari (bundan davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan korxonalar, dasturlarga kiritilgan va aksiz solig‘i to‘lovchi subyektlar mustasno) hamda fermer xo‘jaliklari, banklar va sug‘urta tashkilotlaridan tashqari) tijorat tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslarning alohida bo‘limlari:

Korxonalar buxgalteriyasini — Buxgalteriya hisobining milliy standart bo‘yicha yuritadigan korxonalar uchun (BHMS) 2026-yilning 1-apreldan kechiktirmay;

Korxonalar buxgalteriyasini — Moliyaviy hisobning xalqaro standart bo‘yicha yuritadigan korxonalar uchun (MHXS) 2026-yilning 5-maydan kechiktirmay;

1-Notijorat shakli (yillik) Notijorat tashkilotlar (jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining umumta‘lim muassasalaridan tashqari), tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlarining umumta‘lim muassasalari yig‘ma hisobotini — statistika organlariga 2026-yilning 1-apreldan kechiktirmay, statistika organlariga elektron shaklda taqdim etishlari shart.


Yuqorida qayd etilgan yillik hisobotlarni **my.stat.uz** saytidan shaxsiy kabinet orqali E-stat-4.0 ilovasidan elektron shaklda hisobot taqdim etishlari mumkin. Statistika hisobotlarini o‘z vaqtida taqdim etmagan yoki noto‘g‘ri taqdim etgan korxonalar va tashkilot rahbarlari va mas‘ul xodimlariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonunining 40-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi Kodeksning 215-moddasiga asosan ma‘muriy javobgarlik choralari ko‘rilishi to‘g‘risida ogohlantiramiz.

Tel: (55) 451-80-00 (1)

Viloyat statistika boshqarmasi

RA'NO UZOQOVA DOSTONLARI

Ra'no Uzoqovaning dostonlari alohida o'rganishga, tadqiq qilishga arziydi. Bu dostonlarda ajoyib epik voqealar o'ziga xos usulda, ravon misralarda shunday o'ynoqi, jozibador, shavqli, dardli ohanglarda quyilib keladiki, kishi uning asiri bo'lib qoladi.



Adiba yosh bo'lishiga qaramay, katta hayot yo'lini, girdobli, to'g'anoqli so'qmoqlarni bosib o'tganidanmi, uning umr daftari epik voqealarga shu qadar boyki, ularni maqola, lavha, ocherk, hikoyalari aytib ulgurilmabdi chog'i, bir qismini dostonlariga olib o'tibdi, qo'shiq tarzida kuylabdi. Qo'limizda shoiraning besh dostoni: "Malohat", "G'alaba", "Sarvqad" (Biz uni shunday deb ataymiz), "Gulandom", "Makr va muhabbat", "Gulandom" dan boshqa bironta dostoni haligacha e'lon qilinmagan, biron adabiyotshunos olimning e'tiboriga chalinmagan. Bizningcha, bunga sabab shu bo'lsa kerak: shoira hayotligida she'rlarini va "Gulandom" dostonidan ayrim parchalarnigina kitob shakliga keltirib ulgurdi, xolos. Qolgan hamma asarlari, shular qatorida dostonlari ham uning arxivida qolib ketdi. Dostonlar haqidagi bahsimizni "Sarvqad" dan boshlamoqchimiz. Bu adibaning dastlabki asarlaridan biridir. Dostonda qashshoq cho'pon Dulanning boylar xonadonidagi hasratli kechmishi, "Cho'pon qizi Sarvqadning orzu-armonlari, O'zbekistonning janubida Sovet yillari, bosmachilar xuruji, bu xuruja qarshi Sarvqadning ishtiroki, zafari, kollektivlashtirish davri, Moskvada xalq xo'jaligi ko'rgazmasida Sarvqadning kurashlardagi do'sti, bir fojia tufayli ajralib qolgan yori Safarni uchratishi haqida hikoya qilinadi. Bir qarashda bular jo'n gaplarga o'xshaydi-yu, aslida xalq qo'shig'iga aylangan ketgan.

"Qora sochim o'sib qoshimga tushdi, Ne savdolar mening boshimga tushdi" kabi Sarvqadning mungli nadomatlari orqali qizning chigal hayot

yo'li, insonni chiniqtiruvchi sinovlar ifodalanaadi. Dostonda Safarning psixologik holati g'oyat haqoniy chiqqan. Safarda paydo bo'lgan kuch, e'tiqod, dushmanga nafrat hissi endi uni g'animi ustiga o'lim bo'lib yopirilishga undaydi. Shoira Safardagi jasorat va mardlikni mehr bilan tasvirlaydi. "Kuntug'mish" dostonini eslang: karvonlar boshlig'ining xayolida shum niyat paydo bo'ladi, go'daklarni dala-tuzda qoldirib, ona bechora Xolbeka oyimni zor qaqshatgancha tuyada olib qochadilar. Bu bilan biz "Sarvqad" dostonidagi ba'zi bir epizodlarni "Kuntug'mish"dagi o'sha voqealarning takrori demoqchi emasmiz. Asarda folklor ta'siri borligiga ishora qilmoqchimiz, xolos. Xalq og'zaki ijodi namunalaridan o'rindi foydalana bilgan adiba qalamga olgan mavzuni o'ziga xos hal qiladi:

"Ilonning iziday egri soy oqar, Qoyalari bukilib yo'l uzra boqar. Kunduz ham qorong'i tun kabi dahshat, Hukmron bu tog'da yovuz tabiat.

Darani hisobsiz o'liklar quchgan, Jang aro ajalning sharbatini ichgan, Quzg'unlar cho'qiydi bosmachi ko'zin, Go'yo bir lochindek his etib o'zin"

kabi satrlar badiiy kuchi jihatidan juda yuksakdir. Adiba jang epizodlarini, xususan, Ulug' Vatan urushi qahramonliklarini liro-epik asarlariga olib kiradi. Bu jihatdan shoiraning "Malohat" asari xarakterlidir. Shunday kishilar bor: ular ham sevmochi, ham sevilmoqchi bo'ladi. Sevgining tantana qilishini istaydilar. Ular ham osoyishta turmush, pok muhabbat lazzatini to'tishni istaydilar. Ammo hayot ularning taqdirini boshqa izga solib yuboradi. Hayot taqozosi tufayli ular bunday lazzatni tark etib, ijtimoiy burch tufayli boshqacha odamga aylanadilar. Shifoxona eshigi oldida bir o'smir har kun paydo bo'ladi. Sirtidan qaragan kishi uni dardiga shifo topish uchun kelgan dardmand deb o'ylaydi. U na dori qabul qiladi, na

bint bog'latadi. Shifokor qizchani mohitob yuziga suqlanib qaraydi-da, qaytadi. Bu Sobir. Shifokor qiz Malohatni sevib qolgan oshiq. Bora-bora ma'shuqa ham anglaydi buni. Ular ko'pincha birga qaytadilar. To'y oldidan urush boshlanadi. Har ikkisi Vatan mudofaasiga o'tlanadi. Malohat qamalda qoladi. Biznikilar yovni siqib chiqaradi. Eng oldingi safdagi Sobir ko'radi.

Asir nursiz ko'zlarin, Zo'rg'a ochib termildi unga. Tilgandilar uning yuzlarin Qorilmishdi qip-qizil qonga. Majnunoldek poshnasin o'pagan Sumbul sochin qirqiq olmishlar.

Temirlarni cho'g'dek qizdirib, Ko'kragiga tamg'a solmishlar. O'tli jangda titramagan mard, Qiz ustida egildi qomat, Birdan qoldi ko'z yoshin surib.

Qiz Malohat edi. Uni hushiga keltirib hospitalga topshirgan Sobir jang maydonlariga o'tlanar ekan deydi:

Yaxshi qolgin vafoli dilbar, Biz ketamiz yana ilgari. Gul yuzingga dog' solgan yovni, Moxov bilan oshno qilgali.

Fritslar qizning yuziga dog' solgandilar, oyday yuzini badburush qilib tashlagandilar. Shoshma dedi bosh ko'tarib qiz, Istab seni qaydan toparman.

Tashvishlanma, dedi, u dils'o'z, Zafar quchib o'zim qaytarman.

Dedi: — Tutsa ko'zing xumori — Dilga beray qanday tasalli, Dedi: — Agar sog'insang pari, Kulib turgan quyoshga qara.

Dedi: — Kelsa dahshatli xabar Nechuk qilay toqat, Sobirim. Dedi: — Nochor ko'z yumsam agar, Qasos uchun o'tlan Nodiram.

Pirovardida shunday bo'ldi ham. Qon seli quyilib turgan jang maydonlarining birida Sobir o'ldi, degan xabarni eshitdi Malohat. Bu Malohatning g'azabini badtar oshirdi. Taniga tok yugurganday bo'ldi. Jangga kirdi.

Endi biz Malohatning jang maydonlarida shifokor emas, qo'lida avtomatni sayratgan jasur qiz sifatida ko'ramiz. Keyingi sahifalarda uning ko'ksi orden va medallar bilan to'lib borayotganidan quvonasiz, havasingiz keladi. Sizning ittixoringizga aylanayotgan bu qiz bir oyog'idan ayriladi. Ammo g'alaba marshlari uning kam-ko'stini sezdirmaydi. Qushday yengil uyga qaytgan Malohat vokzalda sevgilisi Sobir bilan topishishga muyassar bo'ladi.

Shoira "Makr va muhabbat" dostonida tog'lilarning bir afsonasi, ya'ni bir sevgi fojiasini qalamga olsa, "Gulandom" da tag'in Ulug' Vatan urushi mavzusiga murojaat qiladi. Men bu dostonlarni qo'shiqqa o'xshatgim keladi. Chin sevgi, sadoqat, Vatanga muhabbat haqidagi bu o'lmas qo'shiqlar hamon baland avjda yangramoqda. Bundan 85 yil muqaddam, 22-iyun sahari manfur dushman tinch kunlarga rahna soldi. Keksa-yu yosh, ayol-u erkak qo'lga qurol olib, dushman yo'lini to'sishga o'tlandilar. Xalqni olovli janglarga qanotlantiruvchi baland ruh zarur edi. O'sha yillari kitob do'konlarida mo'jazgina bir kitobcha paydo bo'ldi. Uning oq moviy ranglar kesishgan muqovasida dastasi dafna barglariga burkangan qirmiz bayroq tasvirlangandi. Bayroqqa bayroq tusidagi harflar bilan "Mardona yuring" degan ikki so'z chekilgan. Uning muallifi Ra'no Uzoqova edi. Keling, shu kitobga kirgan ba'zi she'rlar bilan tanishaylik:

Gul Vatanning mohir qizlari, Ozod elning ko'rar ko'zlari, Ona Vatan chorlaydi bugun Bahodirlar safiga kiring, Mardlik bilan mardona yuring!

kabi chaqiriqlar o'sha kunlar uchun suv va havoday zarur edi. Shoira bu dolzarb mavzuda izchil ijod qildi. Elning yuragidagi dardini she'rga soldi. Ushbu to'plamga yigirma bir she'r kiritilgan. Ularning hammasi bir mavzuga — Vatan mudofaasiga bag'ishlangan. Lekin she'rlar biri-birini takrorlamaydi.

Ayriqliqni istamas edim, Seni jangga qistamas edim. Judolikdan jon

qiynalsa-da Pahlavonim jangga bor, dedim.

Dildorlar o'z yorlarini, onalar suyuqli farzandlarini, go'daklar otalarini to'yga, ma'rakaga emas, jangga — qirg'inbarotga jo'natishyapti. Vatan boshiga falokat tushganda uni qutqarish — insoniy burch. Shuning uchun shoira qotildan o'ch olishga undaydi. Hamisha yorug'lik zulmatni kesganday, ezgulik yovuzlikni yengganday, xiyonatkorona mahv etmoqni istagan fashizmni xalqimiz — shoira "Mardona yuring!" deya xitob qilgan qahramon el — qabrga tiqdi.

G'alabaga chalindi karnay, Dneprdan o'tib keldi yor, Bahodirni tabrik etgani, O'z jonimni ayladim nisor...

deya shoira jangdan qaytgan g'oliblarni g'alaba bilan qutlashga ham muyassar bo'ladi. Jang tugadi. Ammo jangdan so'ng jangovar ishlar qizib ketdi. Bu qurilishlar, tiklashlar, omborlarni rizq-nasiba bilan to'ldirish jabhalari edi. Jangdan toliqib chiqqan Vatan bir lahza tinim bilmas, chunki selday yog'ilgan o'qlar, bombalar obod makonlarni xarobazorlarga aylantirgan. Bu joylarni qayta qurish, obod qilish lozim edi. Shinelini korjomaga almashtirgan sobiq jangchi ishga tushdi. Yangi shaharlar qad ko'tardi. Yangi ko'chalar ochildi, havozasi baland yangi imoratlar, inshootlar bunyod bo'ldi, dashtlar ko'ksini paxtazorlar egalladi. Daryoga monand kanallar qazildi. Dalalarda chechaklar kuldi. Ammo bular shoira Ra'no Uzoqovaning ijodidan o'rin ololmadi. Shoira xalqimiz hayotida o'chmas iz qoldirgan bu beorom lahzalarning ikki yilini ko'rib ulgurdi, xolos.

Ra'no Uzoqova to'ng'ich bo'g'inga mansub o'zbek sovet adibalarining biri sifatida alohida e'zozga loyiq. Mardikorlikka qarshi kurash keskinlashgan bir davrda dunyoga kelgan Ra'noning uch yoshida yetim qolgani va shu boisdan Termiz temir yo'l ishchisi Maryam Badriddinova tarbiyasini olgani hurmatli kitobxonga ma'lum. Badriddinova sakkiz yoshga kirgan Ra'noni internatga o'qishga berdi. Shoira keyinroq "O'z o'tmishimga

o'xshatma" degan bir she'rda qisman o'z tarjimai holini yozdi:

Izg'irin shamollar haryon yeladi, Ko'zlarim ochirmas achchiq qor-bo'ron, Bir ayanch ingranish sasi keladi, Qaysi bir bechora ko'ksi bo'lmish qon.

Bir buzug darvoza yonida, evoh, Juldurlar ichida o'ralgan bola, Xazin tovush bilan ingraydi har dam, Sovuqdan qizargan yuzlari lola.

Oppoq qor ustida ot tuyoqlari G'archillab ul tomon yaqinlashardi. Bolaning kichkina qo'l-oyoqlari Qaltirab, faryodi ko'kdan oshardi.

Bu otliq shaharning soqchisi edi Yaqinlab keldi-da, to'xtadi yuzdan, Mehribon yuz bilan, kel olay dedi Bag'riga bosdi-da, ketdi bir zumda.

Internat eshigi ochilib shunda Oldilar soqchining qo'ldan qizni. Kiygizib Anorga ozoda libos Sevdilar erkalab qopqora ko'zni!

Ra'no internatda yaxshi o'qidi. 1927-yildan to 1931-yilgacha Termiz ta'lim-tarbiya texnikumida o'qidi. Texnikumni muvaffaqiyatli tamomlagan Ra'no bir necha yil o'qituvchilik qildi. Ammo uning yuragida san'atga, she'riyatga jo'shqin muhabbat bor edi. Bu tuyg'u unga orom bermas, samoviy yuksaklarga chorlardir. Shu tariqa she'r tug'ilardi.

Ostonangga qo'ydim qadam, Bir dunyo umid bilan, O'ljam bo'lib xayollarim, Shoirona did bilan.

Hayotimning nash'asidir, Senla kechgan damlarim, Fasllarim kulgan bahor, Gullari misralarim!

Bu damlardan u tamomila rozi edi. Bu damlar baxti kulgan qizning balog'at davridagi romantik hissiyotlarga to'la damlari edi. Gul ham, maysa ham ko'ziga yashnoq, go'zal ko'rinardi.

Sadoqatni meros bilgan, Jonlar labidan. Ahdi aniq, ko'zi yoniq, Yorlar qalbidan.

Yozdi visol qo'shiqlarin, Oltin bahorda.

HOD VA TAQDIR

Hayotimiz madhin aytdim, Shu nihol torda.

Vatanga mehru-muhabbat sadoqatini u chinakam farzandlik tuyg'usi bilan izhor etadi. Keyinchalik shoira "Buxoro haqiqati", so'ng "Lenin yo'li" gazetalarida ishlaydi. Bu davrda asarlari matbuot yuzini ko'radi. Shoira sifatida tanila boshlaydi. 1941-yil KPSS safiga qabul qilinadi. 1944-yilda esa u SSSR Yozuvchilar soyuza a'zolariga kiradi. Ra'no Uzoqova o'z kasbini g'oyat sevishdan tashqari faol jamoatchi ham bo'lgan. 1942-yili o'zbek xalqi nomidan qahramon Leningrad mudofaachilariga 1-may sovg'asi olib borganlar orasida u ham bor edi. Tish-tirnog'igacha qurollanib olgan manfur yor bilan vatandoshlarining yuzma-yuz olishayotgani shoira yangi ruh, yangi mavzu beradi. Ra'no Uzoqova kuch va quvvatga, g'ayrat-ehtirosiga to'lgan ayni balog'at yoshi — 31 yoshida yurak xastaligidan Samarqand shahrida vafot etdi.

Shu kungacha shoiraning uchta kitobi yetib keldi. Ulardan birini shoiraning o'zi tuzib nashr etishga muvaffaq bo'lgan. Ikkinchi va uchinchilari adabiyotimiz jonkuyari Zulfiya hamda Dushan Fayziyev tashabbusi bilan nashr etilgan. Shu asarlarning o'ziyiq shoiraning barakali ijodidan dalolat beradi. Ammo shoiraning ijodi sevimli adibimiz Sharof Rashidov, Nasrullo Xundiy, shoir Dushan Fayziy, Normurod Narzullayevlarning maqollarini hisobga olmaganda kam o'rganilgan, ilmiy tadqiq qilinmagan. Negadir, shu vaqtgacha adabiyotshunos olimlarimizning e'tiborini tortmayapti. Holbuki, shoiraning chuqur mazmunli, badiiy jihatdan baquvvat, yuksak insonparvarlik tuyg'usi bilan sug'orilgan she'rlari alohida o'rganishga arziydi.

Toshtemir TURDIYEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

<p>SURXON TONGI</p> <p>va</p> <p>ЗАРЯ СУРХАНА</p> <p>gazetalari tahririyati</p>	<p>MUASSISLAR:</p> <p>Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi va viloyat hokimligi</p>	<p>TAHRIR HAY'ATI</p> <p>Jo'rabek TO'RAYEV (hay'at raisi)</p> <p>Abduraim CHORIYEV, Murodbek DAVLATOV, Dinara EGAMBERDIYEVA, Xurshid KARSHIYEV</p>	<p>Gazeta 2017-yil 3-fevralda viloyat Matbuot va axborot boshqarmasida 11-001-raqam bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.</p>	<p>BOSH MUHARRIR</p> <p>Salohiddin NORQOBILOV</p> <p>MAS'UL MUHARRIR</p> <p>Sayyora ALLAYEVA</p> <p>NAVBATCHI MUHARRIR</p> <p>Xurshid KARSHIYEV</p> <p>SAHIFALOVCHI DIZAYNER</p> <p>Dildora VOHIDOVA</p>	<p>Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.</p> <p>TELEFONLAR:</p> <p>76 224-23-85,</p> <p>76 224-23-80,</p> <p>76 224-23-87</p>	<p>Qog'oz bichimi A-2, 2 bosma taboq</p> <p>Nashr indeksi: 6 500</p> <p>Bosishga topshirildi — 09:00</p> <p>Bosildi — 11:00</p> <p>Adadi 6 700 nusxa.</p> <p>Buyurtma G-</p>	<p>MANZILIMIZ:</p> <p>Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p> <p>BOSMAXONA MANZILI:</p> <p>Termiz shahri, Shukrona ko'chasi, 19-A uy</p>	<p>Gazeta "Surxon tongi" va "Заря Сурхана" gazetalari tahririyati bosmaxonasida chop etildi.</p>
---	---	---	--	--	--	--	--	--